



**RENESSANS TA'LIM UNIVERSITETI**  
**FILOLOGIYA KAFEDRASI**

**"FILOLOGIYANING DOLZARB MUAMMOLARI"**  
**mavzusidagi xorijiy olimlar ishtirokida Respublika**  
**ilmiy-amaliy konferensiya materiallari**  
**TO'PLAMI**



Toshkent – 2024

## USMON AZIM LIRIKASIDA “YIG’I” KONSEPTINING STRUKTUR-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Umidjon Shavkatovich Egamov

Guliston davlat universiteti

O‘zbek tilshunosligi kafedrası o‘qituvchisi,

[umidjon86@egamov.gmail.com](mailto:umidjon86@egamov.gmail.com)

+998972751126

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada shoir Usmon Azim ijodi misolida “yig’i” konsepti, yig’lamoq fe’li va uning semantik, leksik, uslubiy, lingvopoyetik xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, she’riy matn strukturasida qofiyaning lingvistik vazifasi, ya’ni misradagi so‘zlarning darajalanishi, ma’no ko‘chish usullari, shaklni o‘zgartirish xususiyati, lirik qahramonning tuyg‘ularini yuzaga chiqarish kabi masalalarga munosabat bildirilgan. *Yig’i* leksemasining sinonimik tabiati asosida she’riy matndagi badiiy-estetik vazifasi, qofiya sifatida ishtirok etgan o‘rinlardagi badiiy-uslubiy xususiyatlari Usmon Azim she’riyati hamda adabiyotshunoslik manbalari orqali yoritilgan. Fonetik va uslubiy jihatdan qofiyalarning o‘zaro joylashishi, shoir anglamlarining yuzaga chiqish kechinmalarini ham, marom va individual uslubning ham estetik jihatdar uyg‘unlashuviga keng imkon yaratishi yuzasidan xulosa taqdim qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** konsept, misol, lingvopoetika, badiiy-estetik vazifa, poyetik matn, uslubiy vazifa, qofiya, sinonimik qator.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida *yig’i* holatini umumiy tarzda ifodalashda ko‘proq *yig’lamoq* fe’lidani foydalaniladi. Bu fe’l shu semantik guruhga kiruvchi boshqa fe’llarga nisbatan informativ jihatdan sayoz, mavhum so‘z sanaladi. Nutq jarayonida bu so‘z *yig’i* holati haqida qo‘shimcha emotsional-ekspressiv xususiyatlarni o‘zida aks ettirmaydi. Shunga ko‘ra, bizningcha, *yig’lamoq* fe’lini shu semantik guruh doirasidagi boshqa so‘zlar uchun dominant (klassifikator so‘z) deb baholash o‘rinlidir. Negaki, bu fe’l o‘zi ifodalayotgan amal *yig’i* amallari sinfiga mansubligini bildiradi, lekin bu amal to‘g‘risidagi qo‘shimcha ma’lumotlar, emotsional-uslubiy nozikliklar matn tarkibida boshqa verbal va noverbal vositalar yordamida ifodalanadi [Yunusova D., 2010:25]. Haqiqatdan ham, she’riy matnda yuqorida ta’kidlaganimizdek, *yig’lamoq* – fe’lining yasallishidan misralardagi *yig’lagan* odam (mahbub)ni *tinglamoq* o‘zaro qofiyadosh bo‘lib, fonetik o‘zgarishni sodir qilinishi, undan yangi so‘z yasallishini namoyish qilmoqda. U.Azimning juda ko‘pchilik she’rlarida yorning, qahramonning yig’lashi, uning iztirob chekishi, ruhiy kayfiyati – fonetik strukturani kuchaytirishga, o‘zaro qofiyadosh so‘zlarni matn tarkibida uyg‘unlashuvini ta’minlashga xizmat qilganligi ayonlashadi.

*Yig’i* – konsepti buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida “...she’rning bino va madori ishqqa evrilur va oshliqlikda yig’lamoqdin kulliyroq va doimiyroq amr yo‘qtur...” [Alisher Navoiy, 2013:15]. *Yig’i* – konseptidan yig’lamoq, yig’lash kabi leksik birliklar yasallib, she’riy matnda lirik qahramonning qayg‘u va hasratini teranroq ifodalash uchun ham qo‘llaniladi.

She’riy matn strukturasida qofiyaning lingvistik vazifasi – satrdagi so‘zlarning darajama-darajalanish hodisasi, ma’no ko‘chish usullari, shaklni o‘zgartirish xususiyati, lirik qahramonning tuyg‘ularini yuzaga chiqarish manerasini bajradi. Ana shunday bir

paytda qofiyaning fonetik strukturasi she'rga joziba bag'ishlaydi biz bu hodisani Usmon Azimning quyidagi satrlarida ko'rib chiqamiz:

*Ering g'azablandi, sen-chi yig'lading,*

*Hamma narsa bo'ldi oxiri ayon.*

*Ta'nalarni yig'lab ma'yus tinglading,*

*Yig'lab yuragingni aylading bayon* [Usmon Azim, 1995:99].

Shoirning xotirotlaridan qayta tiklangan ruhiy sog'inish she'rida juda katta hayotiy falsafani ilgari suradi. She'rdagi qofiyaning fonetik strukturasi esa birinchi misrada – **yig'lading**, uchinchi misradagi – **tinglading** so'zlari bilan – *ayon*, *bayon* tarzida o'zaro qofiyalanadi. Bitta fonema (tovush) **n** bilan she'rdagi band o'zaro musiqiy tugallikni keltirib chiqarmoqda. Ayon va bayon leksemalarida oshiq va ma'shuqning oniy lahzadagi uchrashuvi, xayolan suhbat, muloqoti o'quvchi ko'z o'ngida gavdalanadi. Badiiy matn tahlili bilan jiddiy shug'ullangan olim M.Yo'ldoshev qayd etishicha: "She'riy matnda nutq tovushlarining estetik imkoniyatlari tez va qulay idrok etiladi. Chunki she'rda o'ziga xos jozibador ohang bo'ladi. Bu ohangdorlikka tovushlarni uslubiy qo'llash natijasida erishiladi. She'riyatda asosan, alliteratsiya (undoshlar takrori), assonans (unlilar takrori), geminasiya (undoshlarni qavatlash) kabi fonetik usullardan foydalaniladi" [Yo'ldoshev M, 2007:57]. Usmon Azim yuqoridagi she'rida – birinchi va uchinchi misradagi **-ding** qo'shimchasi orqali ikkita leksik birlikni ifodalamoqda. Shoirning "Teatr" she'rida **yig'i** konsepti haqida tamomila boshqacha ma'no anglashiladi. **Yig'i** – konsepti Usmon Azimning she'rlarida juda ko'p hollarda achinish va qayg'urish hissini uyg'otarkan, unda lirik "men" tushunchasining falsafiy-estetik teranlashuv manerasini ko'ramiz:

*Bu yerda o'zlari uchun yig'lashmas,*

*Bu yerda yig'latar birovning dardi.*

*Bu yerda birovning g'ami muqaddas,*

*Bu yerda tabarruk birovning qadri.*

*Eski palto kiygan, mangu piyoda,*

*San'at bu sahnada qilar qo'zg'olon.*

*Yurak baxsh etmoqchi bo'lar dunyoga,*

*Qalblarga – xo'rsinmoq uchun bir imkon* [Usmon Azim, 1995:94].

Keltirilgan she'riy parchada **yig'i** – konsepti yig'lamoq, yig'lashar, g'am va dard so'zlari bilan o'zaro ma'nodosh qatlamni hosil qiladi. Chunki unda yig'lamoq – fe'lidan hosil bo'lingan ma'no, insonning qayg'u-hasratni, teatrning ibratxona ekanligini, aslida inson o'zining iztiroblari sahnada ijro qilinayotganligini his qilmaydi. Bu yerda shoir o'zining qadr-qimmatini bilmaslik, o'z xalqini e'zozlash, o'zligini anglash tushunchalari ham oydinlashadi. Usmon Azimning ko'pchilik she'rlarida yig'lamoq so'zi bilan bog'liq qofiya tuzish san'ati shoirning muhabbat va inson iztirobining nechog'li muhim ekanligini anglatadi. Muhabbat haqidagi balladalarida **yig'i** konsepti motiv darajasiga ko'tarilib, fonetik jihatdan turlicha so'z yasallishlarini keltirib chiqargan:

*"Sen yetim emassan!" – bir payt bo'zladi,*

*Bu sag'ir dunyoning silab boshini.*

*Kelajak nomidan yonib so'zladi,*

*Va dunyo jilmaydi artib yoshini* [Usmon Azim, 1995:101].

Mazkur she'r "G'afur G'ulom haqida hujjatli fantaziya" deb nomlanib, Toshkent zilzilasi, shoirning umriga qanchalik ta'sir qilganligini idroklaydi. Bu yerda **yig'i** – konsepti bo'zlamoq so'zi bilan sinonim bo'ladi. Bo'zlash – nola qilishdir. Bo'zladi va so'zladi so'zlari o'zaro qofiyadosh bo'lib, G'.G'ulomning "Sen yetim emassan"



poemasiga ishora qilinyapti. Urush va urushdan keyingi xalq hayoti, jamiyat boshiga tushgan og'ir kulfatlar, yo'qchilik zamonlarning asoratlari U.Azimning bolalikda xotirasida qolgan mangu ayriliqlarni qayta tiklashga imkon bermoqda:

*Balki qarilik-da – tilini bog'lab,*

*Bo'g'ziga ko'ndalang yillarning toshi...*

*Toshkent bor tarafga termilib qaqshab,*

*Oqdi... Oqaverdi ko'zidan yoshi...* [Usmon Azim, 1995:102].

She'rdagi "bo'g'izga tosh tiqilmoq" birikmasida ham **yig'i** – konseptining boshqacha ifodasini ko'ramiz. Ko'zdan yosh oqmoq – qarigan chog'ida iztirob qo'ynida qolgan G'.G'ulom kayfiyati zilzilaning taloto'rlari aks etadi. Demak, bu yerda qofiyaning fonetik strukturasi toshning **bo'g'izga** tiqilish – **yoshning** ko'zdan oqishini dalolatlamokda. Ma'lumki, she'riy asarda qofiya haqida so'z borganda "She'rda ohangdoshlikni qofiyadosh so'zlar hosil qiladi. Qofiyalanuvchi so'zlar ham ohangdoshlikda, ham ma'no jihatidan teng bo'lavermaydi: ohangdoshlik jihatidan teng bo'lsa, ma'no jihatidan teng bo'lmaydi va, aksincha ma'no jihatidan teng bo'lsa, ohangdoshlikda farq qiladi. Qofiya hosil qiluvchi so'zlarning ohangdoshligi o'zak bilan o'zak orasida, o'zak bilan qo'shimcha o'rtasida va qo'shimcha bilan qo'shimcha orasida vujudga keladi. Qofiya she'r musiqiyliigi va ritmini ta'minlovchi muhim vositalardan biridir. U she'rning g'oyaviy mazmuni, janri, shakli, kompozitsiyasi va mavzui bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Qofiyaning muhim vazifasi – she'riyning g'oyaviy mazmuni bilan bog'liqligi. U she'rda mazmunni go'zal va ta'sirchan ifodalashga xizmat qiladi" [Boboyev T, 1996, 108]. Haqiqatdan ham, she'rning stilistik-semantik xususiyatlari fonetik hodisalarning uzviy birlashuvida, yaxlitlashuvida namoyon bo'ladi. Bir tovush (belgi) bilan so'zning ikkinchi misrasida boshqa bir ma'no aks etishi mumkin. Usmon Azimning she'rlarida **yig'i** – konsepti lingvopoetik jihatdan ham til leksemalariga, ham badiiy so'zning poetik qudratiga, qiymatiga jiddiy ma'no yuklaganligida seziladi. Aynan, **yig'i** – so'zining o'ttizdan ortiq variantlari she'riy misralarda qofiyaning go'zal mazmunni idroklashiga keng yo'l ochganligida deb tushunish mumkin. Shuningdek, mana bu she'rda **yig'i** – konsepti Onasi haqida ekanligi, uning uchun farzand bo'lib hech bir narsa qilolmaganligini afsus-pushaymonlik tuyg'usi bilan iqror bo'lishida ko'rinadi:

*She'r uchunmas, volidam uchun,*

*Ko'zlarimdan yoshim quyildi.*

*Suv yoqalab qo'lida tugun,*

*Onam kelayotganday tuyuldi.* [Usmon Azim, 1995:106].

She'rda ichki qofiyalanish ham mavjud bo'lib, fonetik jihatdan ma'noni kuchaytirishga xizmat qilmoqda. -day, -dek qo'shimchalari o'xshatishlarni yuzaga keltirmoqda. Aslida, shaharda kezib yurgan shoirning ichtaklaridagi obraz Onadir. O'z tug'ilib o'sgan qishlog'idagi Onasining qo'llari mehnatdan qavarganligi va uning hasratini battar kuchaytirishi haqida kommunikativ muloqotga xayolan kirishadi. Ko'z yosh to'kmoq, yig'lamoq va armonlarini suv bo'yida suvga aytib bermoq uchun shoir ko'p narsalarni ko'z o'ngida gavdalanitiradi. **uchun**, **tugun** so'zlarining fonetik jihatdan ohangni kuchaytirishga xizmat qildirilishi, poetik mahoratning quyuqlashuvidan, teranlashuvidan dalolat beradi. "Poetikada ma'noni kuchaytirish va tasvirdagi ayrim epizodlarni alohida ajratib ko'rsatishning maxsus usuli tovushlar takrori bo'lib, hisoblanadi.

Masalan **n** tovushining takrori ham qofiya, ham mazmunni ifodalash barobarida ruhiy holatni ham kuchayishga olib keladi:

*O't jonidan o'tar – bo'zlaydi choynak,*

*Deraza yig'laydi – tashqari tuman.*

*Teleekranning og'zini poylab,*

*Endi qahva ichgin yolg'izlik bilan [Usmon Azim, 1995:99].*

Shoir she'rlarining aksariyatida bo'zlamok - yig'lamoq fe'llari ma'noni kuchaytirish bilan qofiyani ham tartiblashtiradi. She'rdagi musiqiylikni, ritmni yaxlitligini ta'minlaydi. Lingvopoetik jihatdan talqin qilganda she'rdagi fonetik, leksik, semantik birliklar shoir badiiy olamining o'ziga xosligini dalolatlaydi. Shu o'rinda – **bo'zlaydi** – **yig'i** konseptining sinonimi sifatida namoyon bo'lib, derazaning yig'lashi yo'l qarab umr o'tkazayotgan mahbubning ruhiy-estetik olamini idroklashga urg'u beriladi. Ma'lumki, "...fonetik birliklarning she'riy matndagi estetik ahamiyati kattadir. Chunki nutq tovushlarining stilistik imkoniyatlari she'rning asosiy talablaridan biri bo'lgan musiqiy ohangdorlik, jozibadorlikni ta'minlashda yetakchi vositalardan biri hisoblanadi" [ButunboyevaT, 1998, 263]. Darhaqiqat, ushbu manbaga qo'shimcha qilib shuni qayd etish lozimki, birinchidan, fonetik birliklarning she'riy matndagi eng muhim ahamiyati nutq tovushlarining bir-biriga ta'siri, o'rin almashinuvi, qofiyani kuchaytirish, ritmni va pafosni uyg'unligini yuzaga chiqarishga asos bo'ladi. Shuningdek, tovushlar takroridagi faollik tilimizdagi unlilarning yetakchilik qilishi, ko'proq ma'nolar attekasi ham shu unlilar hisobiga farqlanishi evaziga namoyon bo'ladi. U. Azim she'rlaridagi ma'nolar tizimi – tovushlarning ramziy-metaforik asosni tashkil etishiga qarab ham farqlanadi. **Yig'i** – konseptining o'zida 30 ga yaqin ma'no ko'chish ottenkalari qofiyaning fonetik strukturasini yuzaga chiqishida muhim rol o'ynaganligini ko'ramiz. Demak, Usmon Azim she'riyatida lingvopoetik unsurlar bir tomondan shaklni, ikkinchi jihatdan mazmunni to'laqonli idrok qilishimizga asos bo'la oladi:

*Endi she'r yozmayman unga bag'ishlab,*

*Endi xayolini o'ylab yig'layman.*

*Ana qorli kecha – oppoq farishta,*

*Bo'salar olmoqda aziz manglaydan. [Usmon Azim, 1995:112]*

Shoir she'rlarining aksariyati Ona Vatan va muhabbat haqidadir. Lirik qahramonning yig'isi va qo'msashi, bo'zlashi ham o'sha ruhiyatni anglatishga qaratiladi. Bu yerda qofiyaning fonetik xususiyatlari ohangni ham tartiblashtiradi. Bu yerda shaklan qofiyadoshlik sezilmasa-da, ma'no-mazmun jihatidan o'zaro qofiyadosh bo'lgan so'zlar, (fonema)lar mavjud. U shoir aytmoqchi bo'lgan ma'noni kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Umuman, olganda U. Azim she'rlarida **yig'i** – konsepti, misralardagi qofiyalarning fonetik strukturasini muayyanligini dalolatlaydi. Aynan so'zning o'ziga mos tovush (sema)lar bo'lmasa-da, ohangni, musiqiylikni ta'minlashga yo'naltiriladi. "Talaffuz qulayligiga intilish tufayli nutq jarayonida so'zdagi tovushlar zanjirida turli fonetik o'zgarishlar ro'y beradi" [Mamatov J, 2008 №4:61]. Demak, U. Azim talaffuz (nutq)ning fonetik o'zgarishlariga alohida e'tibor berishi, she'r syujeti va lirik qahramon o'y-sezimlaridagi tushunchalarning leksik birliklarda namoyon bo'lish (inson iroda yo'nalishi, ruhiy kolliziyaning kuchayishi) kabi masalalar ham o'z ifodasini topadi. Jumladan, "Poetik matnda so'zning fonetik qiyofasiga alohida e'tibor beriladi. Vazn talabi, ohang bilan bog'liq ayrim noqulayliklarning oldini olish maqsadida talaffuz qulayligiga intilish fonetik tejamlilikni yuzaga keltiradi" [Yusubova R, 2018:18]. Shoir Usmon Azimning birgina – yig'i konseptidan turli xil ma'no tovlanishlarni "kashf qilish"ga jiddiy e'tibor berishi masalaning mohiyatini oydinlashuviga qaratilganligi bilan qadrlidir. Ayniqsa, "poeziya tiliga xos ko'pgina so'z va grammatik formalar so'zlashuvda u darajada qo'llanilmaydi. Bu hol ayniqsa, poetik nutq uchun juda aktiv bo'lgan so'zlar



va soʻz formalarida yaqqol seziladi” [Umurqulov B, 1990-8]. Shunday ekan, lirik janrning tabiatidagi yuzaga chiqayotgan fonetik, leksik va stilistik boʻyoqdorlik, soʻzlarning tuzilishiga, shakli va yasalishiga koʻra maʼno anglatishi shoir poetik olamini teran idrok qilishga imkon beradi. Jahon tilshunosligidagi lingvopoetik qarashlar shuni koʻrsatmoqdaki, aynan oʻzak, soʻz yasalishi, harf orttirilish, tovushlar almashinuvi qofiyaning fonetik tabiatini, strukturasini belgilaydi. Natijada, sheʼrning yagona estetik qiyofasi, undagi soʻzlar anglatayotgan birliklar kesimida olam va odam munosabatlari namoyon boʻladi. Umuman, borliq bilan tillashayotgan har qanday ijodkor – soʻz ustida juda qattiq ishlashini, chuqur oʻrganishni taqozo etadi.

Shoir sheʼrlarida qofiyaning fonetik strukturasini uch oʻlchamli olam mantiqini anglash mezoniga tutashadi. Yaʼni tushuncha (tovush), tasavvur (mantiq), mazmun (kechinma) birligida uygʻunlashib, yangi fonosemantik tahlilga imkon beradi. Deylik “sheʼriyatdagi qofiya, alliterasiya, vazn talabiga koʻra tovush tushishi, tovush orttirilishi, tovushlarning oʻrin almashishi kabi hodisalar fonetik jihatdan tahlilga tortilsa, nasrda obrazning ishonarli boʻlishi uchun turli soʻzlar ifodasidagi oʻziga xos holatlar, yaʼni, unlilarni choʻzish, undoshlarni qavatlash, tovushlarni takrorlash, soʻzlarni notoʻgʻri talaffuz qilish, tovush orttirish yoki tovush tushishi va boshqalar kuzatiladi. Bu kabi tovush oʻzgarishlarining fonopoetik maqsadini lingvopoetik tahlil ochib beradi” [Toshxoʻjayeva, 2015:61]. Zero, sheʼriy matndagi qofiyaning fonopoetik strukturasidagi sistembutunlik nutqiy ong va tuygʻuda ham maromiga yetadi. Shunday ekan, fonetik va uslubiy jihatdan qofiyalarning oʻzaro joylashishi, shoir angamlarining yuzaga chiqish kechinmalarini ham, marom va individual uslubini ham estetik jihatdan uygʻunlashuviga keng imkon yaratadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lugʻatayn. Oʻn jildlik. Oʻninchi jild. – T.: “Gʻafur Gʻulom nomidagi NMIU, 2013. –B. 684.
2. Yunusova D. Oʻzbek tilida yigʻi holatini ifodalovchi leksik-frazeologik birliklar haqida //Til va adabiyot taʼlimi. 2010. №11. –B.25-26.
3. Usmon Azim. Saylanma. –T.: Sharq, 1995. –B. 99
4. Yoʻldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. –T.: NDPU, 2007. –B. 52.
5. Boboyev T. Sheʼr ilmi taʼlimi. –T.: Oʻqituvchi, 1996. –B.108.
6. Butunboyeva T. Zamonaviy nazmiy diskursda individuallikni taʼminlovchi lisoniy vositalar. Fil.fan.b.fals. dokt. ...diss. – SamDU, 2022. –B.33.
7. Mamatov J. Reduksiya bilan bogʻliq yondosh hodisalar// Oʻzbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2008. -№4. – B.61.
8. Yusubova R. Poetik matnda tejamlilik va ortiqchalik. – Navoiy: “Alisher Navoiy” nashriyoti, 2018. – B.18.
9. Umurkulov B. Poetik nutq leksikasi. –T.: “FAN”, 1990. –B.8
10. Toshxoʻjayeva Sh. Erkin Aʼzam asarlari lingvopoetikasi. –T.: FAN, 2015. –B.61.

|                                                                                                                                           |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Leksik sinonimlarning tarjima lugʻatlarda berilishi boʻyicha baʼzi mulohazalar                                                            |     |
| <b>Vazira NAFASOVA</b><br>Fitogidronimlar xususida                                                                                        | 154 |
| <b>Joʻshqin TURSUNOV</b><br>Ogʻzaki nutq meʼyorlarini oʻzlashtirishda psixolingvistika integratsiyasi                                     | 157 |
| <b>Shoira ISLOMOVA</b><br>Oʻzbek qipchoq shevalari tadqiqiga doir                                                                         | 161 |
| <b>Shohista XOLDOROVA</b><br>Muloqot jarayonida ijtimoiy tarmoqlar vosita sifatida                                                        | 167 |
| <b>Naima SOXIBOVA</b><br>Abdulla Qodiriyning “Oʻtkan kunlar” romanining ingliz tiliga tarjimasida kasb-hunarga oid soʻzlarining berilishi | 171 |
| <b>Shaxnoza IZBOSAROVA</b><br>Zamonaviy oʻzbek adabiy dostonlarining leksik-semantik imkoniyatlari                                        | 174 |
| <b>Umida USMONOVA</b><br>Eskirgan qatlam birliklarining lingvistik tavsifi                                                                | 179 |
| <b>Munira MUXAMMADIYEVA</b><br>Oʻzbek tilshunosligining muammolari va istiqbollari                                                        | 183 |
| <b>Munira MUXAMMADIYEVA</b><br>Frazemalarning leksik-semantik xususiyatlari                                                               | 187 |
| <b>Hafiza UNAROVA</b><br>A. Qahhor asarlarida gender stereotiplarining namoyon boʻlishi                                                   | 193 |
| <b>Umidjon EGAMOV</b><br>Usmon Azim lirikasida “Yigʻi” konseptining struktur-semantik xususiyatlari                                       | 196 |
| <b>Maqsuda XUSANOVA</b><br>Oʻzbek dignitonim va faleronimlarining genderologik xususiyatlari                                              | 201 |
| <b>Akbar RUZIYEV</b><br>Xususiy diskursning sotsiopragmatik xususiyatlari                                                                 | 204 |
| <b>Gulshoda RUZIYEVA</b><br>Dunyo tilshunosligida sotsiopragmatika tushunchasi                                                            | 207 |
| <b>Eʼtibor YAXSHIYEVA</b><br>Taʼlim-tarbiya tizimiga oid termin va atamalarining izohli lugʻatlarda berilishi                             | 211 |
| <b>Мухайё ВАЛИЕВА,</b><br><b>Гулшода КОМИЛОВА,</b><br><b>Асила РАСУЛОВА</b><br>Культура речи и магия слова                                | 215 |
| <b>Xulkar RAXMATOVA</b><br>Zid maʼnoli soʻzlar oʻquv lugʻati tuzishning lingvistik asoslari                                               | 219 |
| <b>Dilobar OLIMOVA</b><br>Said Ahmad hajviyalarida qoʻllanilgan taqlid va modal soʻzlarning oʻrni                                         | 222 |
| <b>4-SHOʻBA. OʻZBEK VA XORIJ ADABIYOTI: TADQIQ VA TALQIN</b>                                                                              |     |
| <b>Baxtiyor MENGLIYEV</b><br>Bugun Navoiyni qanday tushunmoq kerak?                                                                       | 227 |
| <b>Qozoqboy YOʻLDOSH,</b><br><b>Zavqiddin SUVONOV,</b><br><b>Dilobar MAMANAZAROVA</b><br>Qissalarda hayot nafasi                          | 235 |
| <b>Rahmatilla BARAKAYEV</b><br>“Ilma ragʻbat istaram millatni yoshu cholidan”                                                             | 239 |